

MILLAT MINBARI


2026-YIL, IYUN №1

**MILLATNING
11 VAKILI**

**TARIXIY
"XET-TRIK"**

ASAD XOJA MO'YDIN XOJAYEV

**NAMANGAN
TARIX YOZDI**



TAHRIRIYAT NOMIDAN

"Millat minbari" — mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim jarayonlar, dolzarb masalalar va taraqqiyot yo'nalishlarini xolis yoritishga ixtisoslashgan jurnal.

Nashr sahifalarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, ilm-fan, madaniyat, sport hamda jamoatchilik hayotiga oid tahliliy va publitsistik materiallar e'lon qilinadi.

Tahririyat jurnal mazmunini tayyorlashda xolislik, professional yondashuv va jurnalistika etikasi tamoyillariga amal qiladi.

TA'SISCHI

"MILLAT MINBARI" MCHJ

Manzil:
Toshkent shahri, Yangiyo'l tumani,
Fayzli MFY, Rayxon ko'chasi,
F 02-2123-uy

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Bosh muharrir
BOLTABOYEV JAHONGIR

Dizayner
SHOHRUH ABDULLAYEV

IJTIMOY TARMOQLAR

  @millatminbari

HAR BIR DAVRNING ENG KATTA BOYLIGI — ISHONCH

Har qanday davrni qurol, iqtisodiyot yoki texnologiya bilan tavsiyalar mumkin. Ammo tarix shuni ko'rsatadiki, jamiyat taqdirini ko'pincha axborot belgilaydi. Qaysi jamiyat ishonchli axborotga ega bo'lsa, o'sha jamiyat to'g'ri qaror qabul qiladi. Axborot qadrsizlangan joyda esa haqiqat ham o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Bugungi kunda dunyo hech qachon bo'lmagan darajada tezlashdi. Xabar soniyalar ichida millionlab odamlarga yetib boradi. Ammo tezlik har doim ham haqiqat degani emas. Eng xavflisi ham shu — yolg'on ko'pincha haqiqatdan tezroq tarqaladi.

Shuning uchun jurnalistning vazifasi birinchi bo'lib xabar berish emas. Uning vazifasi voqeaning mohiyatini anglash, faktni tekshirish va o'quvchiga voqeaning asl mazmunini yetkazishdir. Chunki jamiyat shov-shuvdan emas, ishonchli axborotdan rivojlanadi.

"Millat minbari" aynan shu tamoyil asosida tashkil etildi. Biz voqealarni faqat qayd etishni emas, ularning sabablari, oqibatlari va jamiyat hayotiga ta'sirini tahlil qilishni muhim deb bilamiz. Zero, jurnalistika tarixni kuzatib boradigan kasb emas. U tarixning hujjatidir.

Har bir sahifa, har bir maqola va har bir satr bitta mezon bilan baholanadi: u o'quvchining fikrlashiga qanday ta'sir qiladi? Chunki taraqqiyot ko'pincha yangi texnologiyadan emas, yangicha fikrlashdan boshlanadi.

Bizning maqsadimiz tayyor xulosalarni taqdim etish emas. Asosiy maqsad — o'quvchini mustaqil fikrlashga undash, fakt va tahlil asosida xulosa chiqarish madaniyatini qo'llab-quvvatlashdir.

"Millat minbari" o'z faoliyatini xolislik, aniqlik, mas'uliyat va professional jurnalistika tamoyillari asosida davom ettiradi. Chunki ishonchni qozonish qiyin, uni yo'qotish esa bir lahzalik masaladir.



“

“O‘zbekiston ming yillar davomida Buyuk ipak yo‘lining yuragi bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro va Toshkent orqali nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, bilimlar, madaniyat va an‘analar ham almashgan. Shu bois ochiqlik biz uchun tanlov emas, balki hayotiy zarurat va sivilizatsiyaviy koddir ”

Shavkat Mirziyoyev

*Peterburg iqtisodiy forumidagi
nutqidan*



SHAVKAT MIRZIYOYEV PETERBURG IQTISODIY FORUMIDA YANGI TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi majlisida ishtirok etib, global iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, mintaqaviy hamkorlik va O‘zbekistonning rivojlanish istiqbollariga oid qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Forumda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti **Vladimir Putin**, Tanzaniya Prezidenti **Samiya Suluhu Hasan** hamda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi o‘rinbosari **Xan Chjen** asosiy ma‘ruzachilar sifatida qatnashdi.

Davlatimiz rahbari nutqi avvalida O‘zbekiston va Sankt-Peterburgni bog‘lab turuvchi tarixiy, madaniy va do‘stona aloqalarga e‘tibor qaratib, forumda ishtirok etish imkoniyatidan mamnunligini bildirdi.

Prezident bugungi dunyo chuqur transformatsiya davrini boshdan kechirayotganini qayd etdi. Transport yo‘nalishlarining o‘zgarishi, yangi ishlab chiqarish zanjirlarining shakllanishi, zamonaviy texnologiyalar va sun‘iy intellektning jadal rivojlanishi global iqtisodiy munosabatlarga yangi mazmun baxsh etayotgani ta‘kidlandi.

— *Raqobat nafaqat bozorlar va tabiiy resurslar uchun kurashda, balki texnologiyalar, logistika va infratuzilma sohalarida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda*, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, bugungi murakkab sharoitda barqarorlik, hamkorlik va o‘zaro manfaatdorlik muhitini ta‘minlay oladigan davlatlar hamda mintaqalarning o‘rni va nufuzi tobora ortmoqda.



Nutqda O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyot yo‘liga ham murojaat qilindi.

— *O‘zbekiston ming yillar davomida Buyuk ipak yo‘lining yuragi bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro va Toshkent orqali nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, bilimlar, madaniyat va an‘analar ham almashgan. Shu bois ochiqlik biz uchun tanlov emas, balki hayotiy zarurat va sivilizatsiyaviy koddir*, — dedi Prezident.

Yalpi majlisda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari, savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi hamda energetika sohalaridagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbolari ham muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev ikki davlat o‘rtasidagi texnologik va sanoat hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yagona raqamli platforma asosida ishlovchi ishlab chiqarish klasterlari tizimi — “Yevroosiyo texnologik sanoatlashtirish kamari”ni tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Raqamlashtirish yo‘nalishidagi hamkorlik ham ustuvor masalalardan biri sifatida ko‘rsatildi. Xususan, yangi ish o‘rinlarini yaratish, logistika va to‘lov xizmatlarini rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan qo‘shma Raqamli ekotizimni shakllantirish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonning yosh va faol aholisi mamlakatning eng katta ustunliklaridan biri ekanini qayd etib, ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozorini bog‘laydigan Inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma onlayn platforma yaratish tashabbusini ham ilgari surdi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish maqsadida “Samarqanddan Peterburggacha” kreativ-turistik yo‘lagini tashkil etish taklif qilindi. Mazkur loyiha doirasida san‘at va kino festivallari, muzey ko‘rgazmalari, gastronomiya haftaliklari hamda musiqiy tadbirlarni birgalikda o‘tkazish rejalashtirilgan.



Prezident nutqida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalariga ham e'tibor qaratildi.

“

— O'n yil avval ochiqlik, inklyuzivlik va pragmatizm tamoyillari asosida Yangi O'zbekistonni qurishga kirishgan edik. Shu vaqt davomida barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratdik, — dedi davlatimiz rahbari

Shuningdek, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, bozor institutlarini rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar davom ettirilayotgani ta'kidlandi.

Forum ishtirokchilari Toshkent xalqaro moliya markazining imkoniyatlaridan foydalanishga hamda Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qilindi.

Nutq yakunida Prezident bugungi dunyoda ochiq va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylanayotganini qayd etdi. Uning ta'kidlashicha, ishonch, hamkorlik va umumiy muammolarga birgalikda yechim izlashga tayyorlik mavjud bo'lgan joyda yangi imkoniyatlar va istiqbollar yuzaga keladi.





11 MILLATNING VAKILI

2025-yilning yoz oqshomlaridan biri. Stadiondagi minglab muxlislar hakamning so'nggi hushtagini kutmoqda. Kimdir qo'lini duoga ochgan, kimdir hayajondan telefonini mahkam ushlagan, yana kimdir o'tirgan joyida tinch turolmaydi. Maydonda esa 11 futbolchimiz.

Birinci qarashda ular shunchaki sportchilardek ko'rinadi. Aslida esa ularning har biri ortida millionlab insonlarning orzusi, ishonchi va umidi mujassam edi.

O'zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor futbol bo'yicha Jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Bu natija bir kun yoki bir musobaqada yaratilgani yo'q. Uning ortida yillar davomida to'plangan tajriba, mashaqqatli mehnat, alamli mag'lubiyatlar, og'ir tanqidlar va eng muhimi, sabr bor edi.

Bir paytlar o'zbek futboli haqida gap ketganda, "yana ozgina yetmadi", "yana imkoniyat boy berildi" degan jumlarlar tez-tez yanlardi. Jahon chempionati sari yo'l bir necha bor ochilgan-dek tuyulib, yana yopilib qolardi. Bu holat muxlislar xotirasida takrorlangan armon sifatida saqlanib qolgandi.

Ammo 2025-yil bu tarixni o'zgartirdi.

Maydonga tushgan futbolchilar bilan birga millionlab muxlislarning ishonchi ham maydonga chiqdi. Ular orasida bolaligidan terma jamoa formasini kiyishni orzu qilgan yoshlar, stadionlarda jamoani qo'llab-quvvatlagan fidoyi muxlislar va o'z farzandining futbolchi bo'lishini istagan ota-onalar ham bor edi.

Shu bois bu g'alaba faqat sport natijasi bo'lib qolmadi. U xalqning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, qat'iyati va uzoq yillik intilishlarining ramziga aylandi.

Futbolning o'ziga xos jihati ham shunda. U turli kasb, yosh va qarashdagi insonlarni yagona maqsad atrofida birlashtira oladi. Stadionda ham, ekran qarshisida ham minglab odamlar bir jamoaning muvaffaqiyatini o'zining shaxsiy quvonchidek qabul qiladi.

Terma jamoa aslida 11 nafar futbolchidan iborat emas. U millionlab yuraklarning umumiy orzusi va ishonchini ifodalaydi.

Unda turli hududlarda tug'ilgan, turli muhitlarda ulg'aygan insonlar yagona maqsad yo'lida birlashadi. Aynan shu birlik har qanday yutuqning eng muhim omiliga aylanadi.

Shu ma'noda Jahon chempionatiga yo'llanma nafaqat futbol tariximiz, balki milliy o'zligimiz tarixidagi muhim voqealardan biri bo'lib qoldi.

Yillar o'tadi. Statistikalari yangilanadi, rekordlar yangidan yoziladi. Ammo bir avlodning **"biz ham uddaladik"** degan hissi tarix sahifalarida saqlanib qoladi.

Chunki ayrim g'alabalar kuboklar yoki medallar bilan emas, xalqning xotirasi va qalbida qoldirgan izlari bilan o'lchanadi.



Bolani bugun

HIMOYA QILMASAK

ERTAGA KECH

bo'lishi mumkin

X

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Alisher Qodirov bolalar ta'limi va tarbiyasiga oid muhim masalani ko'tardi. Uning fikricha, bog'chalarda maktabga tayyorlash kurslarini tashkil etish yoki maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tilidan boshqa tilda o'qitish pedagogik nuqtayi nazardan jiddiy xato hisoblanadi.

Deputat bu holatni nafaqat ta'limdagi kamchilik, balki bolaning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil sifatida baholadi. Uning ta'kidlashicha, bola avvalo o'z ona tilida fikrlashni, his qilishni va dunyoni anglashni o'rganishi kerak. Chunki til — shunchaki muloqot vositasi emas, balki milliy o'zlik, madaniyat va tafakkurning asosidir.

Alisher Qodirovning fikricha, bolaning ilk bilimlari va dunyoqarashi ona tili orqali shakllanadi. Shu sababli ta'limning dastlabki bosqichlarida boshqa tilni asosiy o'qitish vositasiga aylantirish bolaning tabiiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Deputat bu masala faqat ota-onalar yoki alohida ta'lim muassasalari tanlovi bilan cheklanib qolmasligi kerakligini qayd etdi. Uning fikricha, kelajak avlod va milliy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan ushbu masala davlatning ta'lim-tarbiya standartlarida qat'iy talab sifatida o'z aksini topishi lozim.

Bugungi globalashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biroq mutaxassislar ham chet tillarini puxta egallash uchun avvalo ona tilidagi bilim va tafakkur poydevori mustahkam bo'lishi zarurligini ta'kidlab keladi. Ona tilida erkin fikrlay olgan bola keyinchalik boshqa tillarni ham muvaffaqiyatli o'zlashtira oladi.

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan bildirilgan ushbu fikrlar ta'lim tizimida bolaning manfaatlarini, uning huquqlari va kelajagi masalalariga yana bir bor e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

“Bolalarni ertaga boy bermaslik uchun ularni bugun himoya qilish kerak”, degan fikr esa masalaning mohiyatini aniq ifodalaydi. Zero, har qanday jamiyatning ertangi kuni bugun qanday ta'lim va tarbiya berilayotganiga chambarchas bog'liq.

A
L
S
H
E
R

Q
O
D
I
R
O
V

B
U
X
R
O
D
A

TURIZM
SOHASIDAGI
ISLOHOTLAR
YANGI
BOSQICHGA
CHIQDI

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi ochiqqligini sezilarli darajada oshirdi. Viza tartiblarining soddalashtirilishi, elektron viza tiziminin joriy etilishi va xorijiy sayyohlar uchun yaratilgan qulayliklar turizm sohasining jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning 93 ta davlati fuqarolari O'zbekistonga vizasiz kirish imkoniyatiga ega. 56 davlat fuqarolari elektron viza olishi mumkin, qator mamlakatlar uchun esa yengillashtirilgan tartiblar joriy etilgan. Mazkur islohotlar natijasida turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi.

Buxoro viloyati bu jarayonning eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2017-yilga nisbatan 6,2 barobar oshib, 1,2 million nafardan 7,5 million nafarga yetdi. Turizm eksporti hajmi esa shu davrda 37,2 million dollardan 736,9 million dollarga ko'tarildi.

Turizm infratuzilmasida ham sezilarli o'sish kuza-tilmoqda. Agar 2017-yilda viloyatda 114 ta joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2026-yilning das-
tlabki besh oyi yakunlariga ko'ra ularning soni 725 taga yetdi. Mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni 18 mingdan oshgan. Har yili o'rtacha 70 ga yaqin yangi joylashtirish vositasi foydalanishga topshirilmoqda.

Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi turistik korxonalar soni ham 41 tadan 240 tagacha ko'paydi. Viloyatda 4 ta turizm qishlog'i va 1 ta turizm mahallasi tashkil etildi.

Tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrash hamda ulardan turizm maqsadlarida samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi o'n yil davomi-da 70 dan ortiq obyektlarda restavratsiya, ta'mirlash va infratuzilmaviy ishlar amalga oshirildi. Natijada 257 ta tarixiy obyekt turistik marshrutlarga kiritildi.

Buxoroda xalqaro tadbirlar soni ham ortib bormo-qda. Xususan, Buxoro xalqaro zamonaviy san'at biennalesi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy meh-monlar orasida ham katta qiziqish uyg'otdi. Viloyat delegatsiyasi Indoneziya, Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Bangladesh, Xitoy, Koreya Respublika-si, Turkiya, Fransiya, Italiya, AQSh va Belarus kabi davlatlarda o'tkazilgan ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etib, Buxoroning turistik salohiyatini targ'ib qildi.



Ziyorat turizmi yo'nalishida ham muhim loyihalar amalga oshirildi. Yetti Pir va boshqa muqaddas qa-damjolarida rekonstruksiya hamda ta'mirlash ishlari olib borildi. Mazkur obyektlar atrofida zamonaviy infratuzilma va mehmonxonalar barpo etildi.

So'nggi yillarda viloyatga qator xalqaro mehmonxona brendlari kirib keldi. Wyndham, Mercure, Sahid va Ramada mehmonxonalari faoliyat boshladi. Hyatt Regency va Hilton brendlarining ham ish boshlashi kutilmoqda. Mazkur mehmonxonalarda 2 mingdan ortiq yoshlar doimiy ish bilan ta'minlangan.

Viloyatning tarixiy meros obyektlari bosqich-ma-bosqich tiklanmoqda. Ark qo'rg'onining bir asr avval vayron bo'lgan qismi arxeologik park sifatida qayta tiklandi. Bahouddin Naqshband majmuasida-gi tarixiy "Toqimiyona" ziyorat yo'lagi ta'mirlandi. Natijada turizm namoyish obyektlari soni 300 tadan oshdi.

Buxoroning turizm sohasidagi yutuqlari xalqa-ro maydonda ham e'tirof etilmoqda. "Halal In Travel Global Summit 2024" sammitida viloyat maxsus mukofot bilan taqdirlandi. Poyi Kalon majmuasi SHHTning "Sakkizinchi mo'jizasi" ro'yxatiga kiritildi. Buxoro "Butun jahon hunar-mandlar shahri" maqomini oldi, "Turkiy dun-yoning yoshlar poytaxti" deb e'lon qilindi hamda Islom madaniyati poytaxti maqomiga sazovor bo'ldi.

Turizm qishloqlari va mahallalarini rivojlantirish ishlari ham izchil davom etmoqda. 2024-2025-yil-larda G'ijduvon, Vobkent, Kogon, Jondor va Romitan tumanlaridagi qator aholi punktlariga turizm qishlog'i va turizm mahallasi maqomlari berildi.

Buxoroning xalqaro nufuzi yildan-yilga ortib bormoqda. Buni tarixiy meros obyektlarining e'tirof etilishi, xalqaro tadbirlarning ko'payishi va xorijiy sayyohlar oqimining keskin ortishi ham tasdiqlaydi. Bugun Buxoro nafaqat O'zbekistonning, balki Marka-ziy Osiyoning eng jozibador turistik markazlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.



FIDOIY JAMOANING QISQA VAQTDA ERISHGAN YUTUQLARI

2019-yilning yozida tashkil etilgan “**Buxoro Agroklastar**” MCHJ faoliyatiga nazar tashlasak, qisqa davr ichida erishilgan natijalar har qanday e’tirofga loyiq ekaniga amin bo’lamiz.

Bugungi kunda agroklastar tarkibida **40 dan ortiq korxona** faoliyat yuritmoqda. Paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib, uni tayyor mahsulot darajasiga qadar qayta ishlash jarayonlarining barchasi raqamlashtirilgan va yagona tizim asosida boshqarilmoqda. Shu bilan birga, jamoa izlanish va takomillashuv yo’lidan to’xtamagan.



Chigit ekishdan boshlab paxta agrotexnikasigacha, ilm-fan va tajriba asosida yuqori hosildor xorijiy urug’lardan foydalanish, paxtani qayta ishlash, tolani ishlash, yigiruv, to’quv, bo’yash hamda tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo’lgan uzluksiz jarayon korxonaning eksport salohiyatini yil sayin oshirib bormoqda.

Xalqimiz dasturxonidan munosib o’rin olgan “**LATTICO**” brendi ostida ishlab chiqarilayotgan qariyb **50 turdagi sut mahsulotlari** bugungi kunda respublikamizdagi eng yirik va zamonaviy supermarketlar javonlarida o’z o’rnini egallagan.

Chorvachilik yo’nalishida ham e’tiborga molik natijalarga erishildi. Dunyoda buzoq olish ko’rsatkichi 86 foizni tashkil etgan bir paytda, agroklastar tarkibidagi 4 mingdan ortiq qoramol parvarishlanayotgan kompleksda uch yillik tajriba va izlanishlar natijasida bu ko’rsatkich 90 foizga yetkazildi.



Jahon miqyosidagi rekord natija sifatida e’tirof etilayotgan ushbu tajriba xorijiy olimlar va soha mutaxassislarining qiziqishini yanada oshirdi hamda o’zaro tajriba almashinuviga zamin yaratdi.

Bog’dorchilik sohasida ham agroklastar jamoasi salmoqli natijalarga erishib kelmoqda. Vobkent tumanida 22 gektar maydonni egallagan, tomchilatib sug’orish texnologiyasi asosida avtomatlashtirilgan tizim bilan boshqariladigan bog’ yiliga 150 tonna olma va 80 tonna o’rik hosili bermoqda. Ushbu mahsulotlar Buxoro aholisi hamda xorijiy iste’molchilar orasida o’zining sifati, mazasi va bozordagi o’rni bilan e’tibor qozongan.

Agroklastar o’zining ko’p tarmoqli faoliyati va turli sohalarida qo’lga kiritayotgan yutuqlari bilan barchani hayratga solishda davom etmoqda. “**Azteks**” brendi ostida tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqariladigan tikuvchilik majmuasi 1 200 nafar tikuvchini doimiy ish bilan ta’minlab kelmoqda. Davlat rahbari ham tashrif buyurgan ushbu korxona o’ndan ortiq xalqaro sertifikatga ega bo’lib, mahsulotlari dunyoning nufuzli mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Buxoro Agroklastar paxta-to’qimachilik klasteri haqida so’z borganda, uning yetti yillik faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari, erishgan yutuqlari hamda mamlakatimiz qishloq xo’jaligi va sanoatini rivojlantirishga qo’shayotgan hisssasi nihoyatda salmoqli ekanini alohida ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda 40 dan ortiq korxona va 7 mingdan ziyod xodimni birlashtirgan agroklastar jamoasiga kelgusida ham ulkan zafarlar, yangi marralar va yuksak yutuqlar tilaymiz.

ILM VA FUTBOL UYG’UNLIGI

Oliy ta’lim muassasalari bugun nafaqat ilm-fan, balki yoshlarning jismoniy kamoloti va sog’lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim o’rin tutmoqda. Bu borada Farg’ona davlat universitetida ham sportga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Universitetda talabalarining sport bilan muntazam shug’ullanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, futbol yo’nalishida yoshlar o’rtasida qiziqishni oshirish, jamoaviylik, intizom va sog’lom raqobat muhitini shakllantirishga ahamiyat berilmoqda.

FarDUda futbol talabalarining bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish va sportga mehr uyg’otish vositalaridan biri sifatida qaraladi. Maydonda shakllanadigan mas’uliyat, qat’iyat va hamjihatlik hissi yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Farg’ona viloyatida futbolga qiziqish yuqori ekani universitet muhitida ham seziladi. Talabalar o’rtasida o’tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilm va sport uyg’unligi yosh avlodning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan Farg’ona davlat universitetida ta’lim bilan bir qatorda sportga ham e’tibor qaratilayotgani yoshlar salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

ANDIJON



**2026
TURKIY DUNYO
MADANIYAT
MARKAZI**

A 2026-yil Andijon uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro TURKSOY tashkiloti qaroriga ko'ra, shahar rasman **"Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti – 2026"** deb e'lon qilindi. Mazkur maqom Andijonning boy tarixiy-madaniy merosini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish va turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

TURKSOY an'anasiga ko'ra, har yili turkiy xalqlar tarixida muhim o'rin tutgan shaharlardan biri madaniyat poytaxti sifatida tanlanadi. Ushbu maqomga ega bo'lgan shaharlarda xalqaro festivallar, ko'rgazmalar, ilmiy anjumanlar va san'at forumlari tashkil etiladi. Bu esa madaniy almashinuv bilan bir qatorda turizm rivojiga ham turtki beradi.

Andijonning tanlanishi bejiz emas. Ming yillik tarixga ega ushbu shahar Buyuk ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri bo'lgan. Shuningdek, u buyuk sarkarda, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan yurt sifatida ham mashhur. Tarixiy manbalarda Andijon Farg'ona vodiysining qadimiy madaniy markazlaridan biri sifatida tilga olinadi.



2026-yil davomida shaharda o'nlab xalqaro madaniy tadbirlar, san'at festivallari va ilmiy konferensiyalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Yil boshidan buyon turkiy davlatlardan olimlar, san'atkorlar va ijodkorlar Andijonga tashrif buyurmoqda. May oyida o'tkazilgan rassomlar festivali hamda xalqaro san'at konferensiyasi ana shunday tadbirlarning dastlabkilaridan bo'ldi.

Mazkur maqom shahar uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Tarixiy obidalarini asrash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va milliy madaniyatni targ'ib qilish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Andijonning madaniyat poytaxti sifatidagi missiyasi turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasi va madaniy merosini yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. 2026-yil davomida shahar nafaqat O'zbekiston, balki butun turkiy dunyoning muhim madaniy muloqot maydonlaridan biriga aylanmoqda.





GULLAR FESTIVALI GINNES REKORDLAR KITOBIGA KIRDI

Namangan nomi uzoq yillardan buyon gullar bilan yonma-yon tilga olinadi. O'zbekistonning eng yashil va fayzli hududlaridan biri sifatida tanilgan viloyat 2026-yilda xalqaro miqyosdagi muhim yutuqqa erishdi. Namangan viloyati Ginnes rekordlar kitobiga kiritildi.

65-Xalqaro gullar festivali doirasida viloyatda bir oy davomida 29 406 384 ta gul ekilib, **“Bir jamoa tomonidan bir oy ichida ekilgan eng ko'p gul”** nominatsiyasi bo'yicha jahon rekordi qayd etildi.

Bu natija nafaqat Namangan, balki O'zbekiston uchun ham ahamiyatli voqea bo'ldi. Chunki rekord xalqaro tashkilot tomonidan rasman tasdiqlanib, viloyat nomi Ginnes rekordlari tarixidan joy oldi.

Aslida Namangan va gullar tushunchasi bir-biridan ajralmas. 1961-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Gullar festivali bugun Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniy va turistik tadbirlardan biriga aylangan. Har yili minglab mehmonlar rang-barang kompozitsiyalar, landshaft dizaynlari va noyob gul namunalari bilan tanishish uchun viloyatga tashrif buyuradi.

Bu yilgi festival ko'لامي bilan alohida ajralib turdi. Rekord natijaga erishish maqsadida shahar ko'chalari, xiyobonlar, bog'lar va jamoat maskanlarida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada Namangan millionlab gullar bilan bezatilgan ulkan ochiq osmon ostidagi gulzorga aylandi.

Ginnes rekordi ortida minglab insonlarning mehnati mujassam. Bir oy davom etgan loyiha Namangan viloyati hokimligi tomonidan muvofiqlashtirilib, xalqaro talablar asosida hujjatlashtirildi va nazorat qilindi.

Mazkur yutuq viloyatning turistik jozibadorligini yanada oshirishi kutilmoqda. Gullar festivali allaqachon Namanganning o'ziga xos brendiga aylangan bo'lsa, rekord esa ushbu an'anani xalqaro darajada yanada mustahkamladi.

Har bir hududning o'z timsoli bo'ladi. Ayrimlari tarixiy obidalar, boshqalari sanoati yoki tabiiy boyliklari bilan mashhur. Namangan esa gullari bilan tanilgan. Endi bu an'ana jahon rekordlari darajasida ham e'tirof etildi.

Shu tariqa, 2026-yil Namangan tarixida alohida o'rin egallaydigan yil bo'lib qoldi. Bir oy davomida 29 milliondan ortiq gul ekilib, yangi jahon rekordi o'rnatildi. Bu natija viloyatning ko'p yillik gulchilik an'analari va Gullar festivalining xalqaro miqyosdagi nufuzini yana bir bor namoyon etdi.

NAMANGAN TARIX YOZDI





O‘ZBEKISTON – IJTIMOIIY DAVLAT

TARAQQIYOTINING MILLIY MODEL

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlardan oq inson manfaatlarini davlat siyosati markaziga qo‘ygan mamlakat sifatida taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi.

Yangi davlatchilik asoslarini shakllantirish jarayonida iqtisodiy islohotlar, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy himoya bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirildi. Bu yo‘l xalqning hayot sifati, qadr-qimmati va farovonligini ta‘minlashga qaratilgan milliy taraqqiyot modelining muhim ustuniga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etdi. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat qurish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Davlatning iqtisodiy va siyosiy qarorlari ortida avvalo inson manfaatlarini turishi haqidagi g‘oya bosqichma-bosqich amaliy mazmun bilan boyib bordi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi asosan nafaqalar, moddiy yordamlar va imtiyozlar orqali amalga oshirildi. O‘sha davr uchun mazkur mexanizmlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholining turmush darajasini saqlab qolish, kam ta‘minlangan oilalarni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash davlat siyosati ustuvor vazifalaridan bo‘ldi.

Vaqt o‘tishi bilan jamiyat taraqqiyoti, demografik o‘zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi ijtimoiy himoya tizimiga nisbatan yangi yondashuvlarni talab qildi.

Ehtiyojmand insonlarga faqatgina moddiy ko‘mak berish bilan cheklanmasdan, ularning muammolarini erta aniqlash, hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish kabi vazifalar kun tartibiga chiqdi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichi mamlakat ijtimoiy siyosati tarixida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** rahbarligida inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini ta‘minlash davlat siyosatining bosh maqsadi sifatida belgilandi.

“**Inson qadri uchun**” tamoyili davlat boshqaruvining barcha sohalariga tatbiq etildi. Natijada ijtimoiy himoya tizimi ham mazmunan, ham tashkiliy jihatdan chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakat taraqqiyotining mazkur bosqichini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Unda O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekani konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

Bu norma davlat zimmasiga aholining munosib hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirish bo‘yicha keng qamrovli majburiyatlarni yukladi.

Ijtimoiy davlat g‘oyasi insonning butun hayot davri mobaynida uni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli siyosatni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar mamlakat ijtimoiy himoya tizimini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur islohotlarning eng muhim natijalaridan biri Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilgani bo‘ldi. Ilgari turli davlat idoralari o‘rtasida tarqoq holda amalga oshirilgan ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy nafaqalar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yagona vertikal boshqaruv tizimiga birlashtirildi. Bu aholi uchun xizmatlarning manzilliligi, tezkorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Joylarda tashkil etilgan “**Inson**” ijtimoiy xizmatlar markazlari mazkur tizimning eng muhim bo‘g‘ini-ga aylandi. Ushbu markazlar aholining ehtiyojlarini bevosita mahalla darajasida aniqlash, baholash va hal etish imkonini bermogda. Ilgari fuqarolar bir nechta tashkilotlarga murojaat qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, bugun ko‘plab ijtimoiy xizmatlar yagona nuqta orqali ko‘rsatilmoqda.



NATIJADORLIK MEZONINI

USTUVOR QO'YGAN RAHBAR

Rahbar faoliyatini baholashda eng muhim mezon — bu natijadir. Amalga oshirilgan loyihalar, yaratilgan ish o'rinlari, jalb qilingan investitsiyalar va aholi farovonligidagi o'zgarishlar boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Aynan shu mezonlar nuqtai nazaridan qaralganda, Farg'ona viloyatida keyingi yillarda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sish alohida e'tiborga loyiq.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov boshchiligidagi hududda investitsiyalarni jalb etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, investorlar bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazilishi, xorijiy delegatsiyalar bilan muzokaralar olib borilishi hamda yangi loyihalarning amaliy bosqichga chiqarilishi bu boradagi tizimli ishlarning muhim qismidir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda Farg'ona viloyatida 1 281 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilib, iqtisodiyotga 3,7 milliard dollar investitsiya jalb qilindi. Shundan 2,5 milliard dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi. Bunday ko'rsatkichlar hududning investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim mezon — bandlik. 2017–2024-yillar davomida amalga oshirilgan minglab investitsiya loyihalari natijasida 154 mingdan ortiq yangi ish o'рни yaratildi.

Bu iqtisodiy o'sishning oddiy statistik raqam emas, balki minglab oilalarning daromadi va turmush sifati yaxshilanishida ham o'z aksini topayotganini anglatadi.

Samarali boshqaruvning yana bir mezoni — xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir. So'nggi yillarda Farg'ona viloyati Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh va boshqa davlatlarning ishbilarmon doiralari bilan investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Yangi ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo'jaligi, sanoat va logistika sohalaridagi qo'shma loyihalar viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun **25,7 trillion so'mlik investitsiyalar** o'zlashtirildi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **53,8 foizga** yuqori ko'rsatkichdir. Mazkur natijalar hududda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Har qanday rahbar faoliyatiga yakuniy bahoni vaqt va natija beradi. Investitsiyalar hajmi, yangi korxonalar, yaratilayotgan ish o'rinlari hamda xalqaro hamkorlik ko'lamining kengayishi Farg'ona viloyatida tanlangan rivojlanish yo'nalishi o'z samarasini berayotganini ko'rsatmoqda. Natijadorlikni bosh mezon sifatida belgilash esa bugungi zamonaviy boshqaruvning eng muhim talablaridan biri bo'lib qolmoqda.



KUL GU DAN

TOMOSHABIN E'TIROFIGACHA:

ELMUROD HAQNAZAROV
IJODI

O'

O'zbek qiziqchilik san'atida o'z auditoriyasini shakllantira olgan ijodkorlar orasida **Elmurod Haqnazarov** alohida o'rin egallaydi. U yillar davomida sahnadagi faoliyati, teleloyihalardagi ishtiroki va yakkaxon dasturlari orqali keng tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelmoqda.

2026-yilda o'tkazilgan "Yangi O'zbekiston yulduzlari" milliy mukofoti taqdirlash marosimida Elmurod Haqnazarov "Yilning eng yaxshi qiziqchisi" nominatsiyasi g'olibi deb topildi. Mazkur nominatsiyada **Mirshakar Fayzullayev** va **Avaz Oxun** ham nomzod sifatida ko'rsatilgan edi. Yakunda mukofot Elmurod Haqnazarovga topshirildi.

San'atkor keng jamoatchilikka "Dizayn" jamoasi tarkibidagi faoliyati orqali tanildi. Keyinchalik esa mustaqil ijodiy faoliyatini davom ettirib, konsert dasturlari va turli loyihalar orqali tomoshabinlar bilan uchrashib kelmoqda.

Elmurod Haqnazarov ijodida kundalik hayot, oilaviy munosabatlar va jamiyatda uchraydigan turli holatlar kulgi vositasida yoritiladi.

Uning chiqishlarida oddiy hayotiy voqealar va xalqona obrazlarning uchrashi tomoshabinlar e'tiborini tortib kelmoqda.

"Yilning eng yaxshi qiziqchisi" nominatsiyasi natijalari e'lon qilingach, ijtimoiy tarmoqlarda turli fikrlar bildirildi. Ayrim muxlislar tanlov natijalarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, boshqalar o'z qarashlarini bildirdi. Bu esa qiziqchilik san'atiga bo'lgan qiziqish va tomoshabinlar faolligini yana bir bor namoyon etdi.

Bugungi kunda Elmurod Haqnazarov o'zbek kulgi san'atida faol ijod qilayotgan va keng auditoriyaga ega qiziqchilardan biri hisoblanadi. Uning sahnadagi faoliyati hamda tomoshabin bilan muloqotga asoslangan uslubi ijodiy yo'lining muhim jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda.



O'ZBEK BOKSIDAGI TARIXIY “XET-TRIK”

2025-yil o'zbek boksi tarixida alohida sahifa bo'lib qoldi. Yil davomida ikki nufuzli tashkilot tomonidan o'tkazilgan jahon chempionatlarida vakillarimiz munosib ishtirok etib, O'zbekiston boks maktabining xalqaro maydondagi mavqei-ni yana bir bor namoyon etdi.

Angliyaning Liverpool shahrida World Boxing tashkilotining tarixiy ilk jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston erkaklar terma jamoasi 6 ta oltin medalni qo'lga kiritib, musobaqaning eng yorqin natijalaridan birini qayd etdi.

Yilning yana bir muhim voqeasi Dubayda IBA tomonidan tashkil etilgan jahon chempionatida kuzatildi. O'zbekistonlik bokschi Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev kattalar o'rtasida uch karra jahon chempioni bo'lgan ilk o'zbek bokschisiga aylandi.

Bu natija o'zbek boksi uchun tarixiy ahamiyatga ega. Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev 2023-yilda Toshkentda o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgan edi. 2025-yilda esa World Boxing va IBA tomonidan o'tkazilgan jahon chempionatlarida ham shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilib, o'ziga xos “xet-trik”ni rasmiylashtirdi.

Bungacha Ruslan Chagayev 1997 va 2001-yillarda, Abbos Atoev 2007 va 2009-yillarda, Bahodir Jalolov 2019 va 2023-yillarda, Abdumalik Xalokov hamda Hasanboy Do'smatov 2023 va 2025-yillarda ikki martadan jahon chempioni bo'lgan edi.

Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev esa uchinchi oltin medal bilan o'zbek boksi tarixida yangi marrani zabt etdi.

Bu muvaffaqiyat nafaqat boks, balki butun O'zbekiston sporti uchun ham muhim natijadir. Olimpiya dasturidan o'rin olgan sport turlari bo'yicha uch karra jahon chempioni bo'lgan o'zbekistonlik sportchilar soni Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev bilan to'rt nafarga yetdi. Unga qadar sport gimnastikasi afsonasi Oksana Chusovitina, og'ir atletikachilar Ruslan Nuriddinov va Akbar Jo'rayev uch martadan jahon chempionligini qo'lga kiritgan edi.

Shu tariqa, o'zbek sportida yana bir ramziy natija — “poker” qayd etildi. Oksana Chusovitina, Ruslan Nuriddinov, Akbar Jo'rayev va Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev nomlari mamlakat sporti tarixida uch karra jahon chempionlari sifatida alohida o'rin egalladi.

Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayevning bu natijasi minglab yosh sportchilar uchun katta ilhom manbaidir. Uning g'alabalari o'zbek boksi xalqaro ringlarda nafaqat raqobatlashayotganini, balki tarix yozayotganini ham ko'rsatmoqda. Bugungi “xet-trik” ertangi yanada yuksak maralarga yo'l ochishi mumkin. Ammo bir haqiqat aniq: Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev nomi allaqachon o'zbek boksi tarixining oltin sahifalaridan joy oldi.



ASAD XO'JA

MO'YDIN XO'JAYEV

JENIA KIM: O‘ZBEKISTON MOTIVLARINI JAHON MODASIGA OLIB CHIQQAN DIZAYNER

Bugun moda markazlari sifatida Parij, Milan, London va Nyu-York shaharlari tilga olinadi. Biroq so‘nggi yillarda Markaziy Osiyodan chiqqan ayrim ijodkorlar ham xalqaro moda maydonida o‘z o‘rni-ni topishga muvaffaq bo‘ldi. Shunday dizaynerlar-dan biri — Jenia Kim.

Toshkentda tug‘ilgan dizayner o‘zining J.Kim brendi orqali milliy madaniyat unsurlarini zamonaviy moda bilan uyg‘unlashtirib kelmoqda. Uning kolleksiyalarida o‘zbek matolari, an‘anaviy naqshlar va hunarmandchilik elementlari zamonaviy dizayn yechimlari bilan birla-shadi.

Jenia Kim ijodining o‘ziga xos jihati turli madaniy qatlamlarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Koreys ildizlariga ega bo‘lgan dizayner o‘z ishlarida O‘zbekiston va Koreya madaniy merosidan ilhom oladi. Bu esa uning kolleksiyalariga alohida uslub va badiiy yechim baxsh etadi.



J.Kim brendi xalqaro moda hamjamiyati e‘tiborini tor-tishga erishdi. Dizaynerning ishlari Vogue, Dazed va i-D kabi nufuzli moda nashrlarida yoritilgan. Bu esa brend-ning xalqaro maydondagi tanilishiga xizmat qildi.



Jenia Kim faoliyati O‘zbekistonning boy madaniy merosi zamonaviy kreativ industriya uchun ham ilhom manbai bo‘la olishini namoyon etmoqda. Uning kolleksiyalarida milliy an‘analar nafaqat saqlab qolinadi, balki yangi talqinlarda dunyo auditoriyasiga taqdim etiladi.

Shu jihatdan Jenia Kim ijodi moda bilan cheklanib qolmay, madaniy muloqot va ijodiy almashinuvning ham bir qismiga aylanmoqda. Uning faoliyati O‘zbekis-ton nomining xalqaro moda maydonida yangrash va mahalliy dizayn maktabin-ing tanilishiga xizmat qilayotgan yorqin misollardan biridir.

J
E
N
I
A

K
I
M



OIVGA QARSHI KURASHIDA YANGI BOSQICH:



CHEMPIONLAR MAKTABI QAYERDAN BOSHLANADI?

Qariyb qirq yildan buyon OIV bilan yashayotgan millionlab insonlar uchun bir qoida o'zgarmas bo'lib kelmoqda: virusni nazorat qilish uchun dorilarni muntazam qabul qilish zarur. Aynan antiretrovirus terapiya OIVni o'limga olib keluvchi kasallikdan uzoq muddat nazorat qilinadigan surunkali xastalik darajasiga olib chiqdi.

Biroq 2026-yilda e'lon qilingan yangi ilmiy natijalar ushbu yondashuv kelajakda o'zgarishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Londondagi **Imperial College** olimlari tomonidan o'tkazilgan **RIO** klinik tadqiqotida keng ta'sir qiluvchi neytrallovchi antitanalar (bNAbs) asosidagi yangi usul sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 75 foizi **antiretrovirus terapiyasini** to'xtatganidan keyin ham kamida 20 hafta davomida virusni nazorat ostida saqlab tura olgan.



Ayrim ishtirokchilarda esa bu davr ikki yilgacha davom etgan.

Mazkur usulning asosida virusning hujayralarga kirishiga to'sqinlik qiluvchi va immun tizimining javob reaksiyasini kuchaytiruvchi antitanalar yotadi. Tadqiqotchilar bu yondashuv OIVni to'liq davolash usuli emasligini ta'kidlamogda. Shunga qaramay, u kundalik dori qabul qilishga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Bugungi kunda OIV bilan yashovchi insonlar uchun asosiy muammolardan biri davolanishning umr bo'yi davom etishidir. Shu sababli uzoq muddatli remissiyani ta'minlay oladigan har qanday yangi yondashuv ilmiy hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kuzatilmoqda.

OIV bo'yicha tadqiqotlar boshqa yo'nalishlarda ham davom etmoqda.



Olimlar uzoq ta'sir qiluvchi preparatlar, yarim yilda bir marta qo'llanadigan in'eksiyalar va immunoterapiya usullarini sinovdan o'tkazmoqda. Bu esa kelajakda bemorlarning hayot sifatini yanada yaxshilash imkonini berishi mumkin.

Bir paytlar OIV tashxisi inson uchun umidsizlik ramzi sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugun ilmiy fan uni boshqarishning tobora samaraliroq usullarini izlamogda. **RIO** tadqiqoti natijalari esa olimlar uzoq yillardan buyon intilib kelayotgan maqsad — OIVni kundalik dorilarsiz uzoq muddat nazorat qilish imkoniyati sari yana bir muhim qadam tashlanganini ko'rsatmoqda.





99%



O'ZBEKISTONDA MOBIL TELEFON FOYDALANUVCHILARI 99 FOIZDAN OSHDI

*O'zbekistonda mobil telefon kundalik hayotning ajralmas qis-
miga aylandi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra,
2025-yilda 10 yosh va undan katta aholining 99,3 foizi mobil
telefondan foydalangan.*

So'nggi besh yildagi ma'lumotlar mam-
lakatda mobil aloqa xizmatlaridan foyda-
lanish darajasi izchil oshib borayotganini
ko'rsatadi. Xususan, 2021-yilda mobil
telefon foydalanuvchilari ulushi 95,7 foizni
tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 97,8 foizga
yetgan. 2023 va 2024-yillarda bu ko'rsat-
kich 99,1 foiz darajasida qayd etilgan
bo'lsa, 2025-yilda 99,3 foizga ko'tarilgan.

Mazkur o'sish mobil aloqa infratuzilmas-
ining rivojlanishi, internet qamrovining
kengayishi hamda raqamli xizmatlarning
ommalashuvi bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda mobil telefon faqat mu-
loqot vositasi bo'lib qolmay, ta'lim olish,
to'lovlarni amalga oshirish, davlat xizmat-
laridan foydalanish va axborotga tezkor
kirish imkonini beruvchi muhim vositaga
aylangan.

Statistik ma'lumotlar O'zbekistonda
raqamlashtirish jarayonlari yangi bosqich-
ga ko'tarilayotganini ko'rsatmoqda. Mobil
texnologiyalarning keng tarqalishi esa
aholining kundalik turmushi, mehnat
faoliyati va axborot olish madaniyatida
muhim o'rin egallamoqda.

SUN'YI INTELLLEKT RIVOJLANISH BOSQICHLARI

X XXI asr texnologik taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri sun'iy intellektidir. Bugungi kunda ushbu texnologiya iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, sanoat va davlat boshqaruvi kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Nemis iqtisodchisi va futuristi **Klaus Shvabning** ta'kidlashicha, zamonaviy dunyo raqamli texnologiyalar ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda va bu jarayonda sun'iy intellekt muhim o'rin tutadi.

Olimlar va mutaxassislar uning rivojlanishini odatda uch asosiy darajaga ajratadilar.

1

Birinchi daraja — tor sun'iy intellekt (Artificial Narrow Intelligence — ANI). Bunday tizimlar muayyan vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan bo'ladi. Ovozli yordamchilar, avtomatik tarjima dasturlari, tavsiya algoritmlari va yuzni aniqlash texnologiyalari shular jumlasidandir. Hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan deyarli barcha sun'iy intellekt tizimlari aynan shu toifaga kiradi.

2


Ikkinchi daraja — umumiy sun'iy intellekt (Artificial General Intelligence — AGI). Nazariy jihatdan bunday tizim inson kabi turli sohalarda bilim olish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Hozircha to'liq AGI yaratilmagan bo'lsa-da, zamonaviy neyron tarmoqlar va yirik til modellari ushbu maqsad sari tashlangan muhim qadamlar sifatida baholanmoqda.

3

Uchinchi daraja — superintellekt (Artificial Super Intelligence — ASI). Bu hozircha nazariy konsepsiya bo'lib, unda sun'iy intellekt insonning aqliy imkoniyatlaridan yuqori darajaga chiqishi nazarda tutiladi. Ayrim tadqiqotchilar bunday tizimlar murakkab ilmiy va texnologik muammolarni hal etishda ulkan imkoniyatlar yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi. Boshqalar esa ehtimoliy xavflar va nazorat masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Klaus Shvabning fikricha, **To'rtinchi sanoat inqilobi** avvalgi sanoat inqiloblaridan tezligi, qamrovi va ta'sir ko'lami bilan ajralib turadi. Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonning markaziy texnologiyalaridan biri hisoblanadi. U ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim va boshqaruv tizimlarini o'zgartirib, yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Shu bois kelajakda ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, ularning xavfsizligi, axloqiy me'yorlari va huquqiy tartibga solinishiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Zero, sun'iy intellektning kelajakdagi ta'siri nafaqat texnologik taraqqiyotga, balki jamiyat rivojining yo'nalishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.



FUTBOLDAN HAM MASHHURMI?

LISA FENOMENI NIMASI BILAN AJRALIB TURADI?

2026-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionati doirasidagi musiqiy chiqishlardan birida BLACKPINK guruhi a'zosi Lisa braziliyalik Anitta va nigeriyalik Rema bilan birgalikda "Goals" qo'shig'ini ijro etdi. Ushbu chiqish qisqa vaqt ichida ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi.

Bu esa yana bir savolni kun tartibiga olib chiqdi: Lisa fenomenining siri nimada?

Albatta, futbol sport turi sifatida dunyodagi eng ommabop yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq individual mashhurlik nuqtai nazaridan qaralganda, Lisa bugungi kunda dunyoning eng taniqli san'atkorlaridan biridir. Uning Instagram sahifasini 106 milliondan ortiq foydalanuvchi kuzatadi. Bu ko'rsatkich uni platformadagi eng mashhur K-pop san'atkoriga aylantirgan.

Qizig'i shundaki, uning auditoriyasi yildan-yilga o'sishda davom etmoqda. 2023-yilda Lisa Instagram'da 90 million kuzatuvchiga ega bo'lgan ilk K-pop yulduzi sifatida Guinness rekordiga kiritilgan edi. Bugunga kelib esa uning kuzatuvchilari soni 106 milliondan oshgan.

Lisa muvaffaqiyatining sababi faqat musiqada emas. U K-pop ijrochisi bo'lish bilan birga moda industriyasining eng yirik brendlari bilan hamkorlik qilmoqda,

kino va teleloyihalarda ishtirok etmoqda hamda global pop-madaniyatning eng taniqli vakillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda uning faoliyati musiqadan tashqariga ham kengaydi. Lisa moda olami, reklama sanoati va ko'ngilochar industriya bilan bog'liq yirik loyihalarda qatnashib, global auditoriyaga ega media shaxsga aylandi.

Uning mashhurligi faqat Osiyo bilan cheklanib qolmaydi. Amerika va Yevropadagi muxlislar bazasi ham muntazam kengayib bormoqda. 2026-yilda Lisa Las-Vegasda rezident-show tashkil qilgan ilk K-pop yulduziga aylandi. Chiptalarning qisqa vaqt ichida sotib bo'linishi esa unga bo'lgan qiziqish darajasini yana bir bor namoyon etdi.

Demak, "Lisa futboldan mashhur" degan fikr mutlaq haqiqat bo'lmasligi mumkin. Biroq bir narsa aniq: u bugungi global pop-madaniyatning eng ta'sirchan vakillaridan biri hisoblanadi. Musiqa, moda va media olamidagi faoliyati esa uning auditoriyasini an'anaviy K-pop muxlisleri doirasidan ancha kengaytirishga xizmat qilmoqda.





NEGA BARCELONA EL KLASIKODA AYNAN

OLIVIA RODRIGONI TANLADI?

E

El Klasiko futbol olamidagi eng mashhur qarama-qarshiliklardan biri hisoblanadi. FC Barcelona va Real Madrid o'rtasidagi uchrashuv har safar yuz millionlab tomoshabinlar e'tiborini tortadi. Shu bois bu o'yin bilan bog'liq har qanday qaror ham keng muhokamalarga sabab bo'ladi.

2026-yilgi El Klasiko arafasida ko'pchilik e'tiborini tortgan yangiliklardan biri Barcelona formasida Olivia Rodrigo ramzining paydo bo'lishi bo'ldi.

Aslida bu qaror Spotify va FC Barcelona o'rtasidagi hamkorlikning davomi hisoblanaadi. 2022-yildan buyon El Klasiko o'yinlarida Spotify logotipi o'rnida dunyoning mashhur musiqachilaridan birining ramzi yoki logotipi joylashtirib kelinmoqda. Avval Drake, Rosalía, The Rolling Stones, Karol G, Coldplay, Travis Scott va Ed Sheeran tanlangan bo'lsa, bu safar navbat Olivia Rodrigoga keldi.

Xo'sh, Olivia Rodrigo kim?

Amerikalik xonanda va aktrisa avval Disney loyihalaridagi rollari bilan tanilgan bo'lsa-da, 2021-yilda chiqarilgan "Drivers License" qo'shig'i bilan global miqyosda mashhurlikka erishdi.

Keyingi yillarda esa u zamonaviy pop musiqaning eng taniqli yosh vakillaridan biriga aylandi.

Spotify va FC Barcelona tanlovi ham aynan uning xalqaro auditoriyasi bilan bog'liq. Olivia Rodrigo nafaqat musiqa ixlosmandlari, balki moda, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasi orasida ham keng tanilgan shaxs hisoblanadi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, u Spotify va Barcelona hamkorligi doirasida El Klasiko formasida nomi aks etgan eng yosh san'atkorga aylandi. Bu esa loyiha orqali yangi avlod auditoriyasi bilan muloqotni kuchaytirishga intilish kuzatilayotganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda futbol va musiqa sanoati o'rtasidagi hamkorlik tobora kuchayib bormoqda. El Klasiko kabi yirik sport voqealarida dunyo miqyosidagi san'atkorlarning ishtiroki ushbu uchrashuvlarni nafaqat sport, balki global madaniy hodisaga ham aylantirmoqda.

Shu ma'noda Olivia Rodrigoning tanlanishi tasodifiy qaror emas. Bu zamonaviy futbolning faqat maydondagi natijalar bilan emas, balki global auditoriya e'tibori uchun ham raqobatlashayotganini ko'rsatuvchi navbatdagi misollardan biridir.

IKKI PITSADAN TRILLION DOLLARLIK BOZORGACHA:

BITCOIN FENOMENI

2010-yil 22-may kuni amerikalik dasturchi Laslo Xanyech tarixga kirgan xaridni amalga oshirdi. U ikki dona pitsa uchun 10 ming bitcoin to'ladi. O'sha paytda ushbu mablag'ning qiymati taxminan 41 dollarni tashkil etgan edi. Bugun esa bu voqea kriptovalyutalar tarixidagi eng mashhur hodisalardan biri sifatida eslanadi va har yili "Bitcoin Pizza Day" nomi bilan nishonlanadi.

O'sha davrda oddiy raqam sifatida qabul qilingan 10 ming bitcoin keyinchalik ulkan qiymat kasb etdi. Bitcoin narxining turli davrlardagi o'sishini hisobga olganda, mazkur mablag' yuzlab million dollar qiymatiga yetgan paytlar ham bo'lgan. Shu sababli ushbu xarid ko'pincha tarixdagi eng qimmat pitsa xaridi sifatida tilga olinadi.

Oradan qariyb o'n olti yil o'tib, bitcoin tajriba loyihasidan global moliyaviy aktivga aylandi. Bugungi kunda u kriptovalyuta bozoridagi eng yirik aktiv bo'lib, uning bozor kapitallashuvi trillionlab dollar bilan baholanmoqda.

Biroq zamonaviy kripto bozori faqat bitcoindan iborat emas. Ethereum, Solana va XRP kabi loyihalar ham bozordagi muhim o'rinlardan birini egallaydi. Ethereum aqlli shartnomalar va markazlashmagan ilovalar ekotizimi bilan ajralib tursa, Solana yuqori tezlikdagi tranzaksiyalari bilan e'tibor qozongan. XRP esa xalqaro to'lov tizimlarida qo'llanilishi bilan boshqa loyihalaridan farqlanadi.

Shunga qaramay, kriptoaktivlar bozori yuqori tavakkalchilik va keskin narx o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. Bitcoin kursining qisqa muddat ichida sezilarli darajada o'zgarishi bu bozorning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bitcoin tarixi raqamli texnologiyalar davrida innovatsion g'oyalar qanchalik katta iqtisodiy hodisaga aylanishi mumkinligini yaqqol namoyish etadi. Bir paytlar ikki dona pitsa uchun ishlatilgan raqamli aktiv bugun dunyo moliya bozorlarida muhim o'rin egallab, trillion dollarlik ekotizimning markaziga aylangan.



QASHQADARYO TADBIRKORLIGI

YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA



Tadbirkorlik bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish ko'p jihatdan aynan tadbirkorlik faolligiga bog'liq. Shu bois mamlakatimizda ushbu sohani qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil davom ettirilmoqda.

So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq va bojxona sohasi-dagi yengilliklar hamda biznes yuritish tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning muammolarini tezkor hal etishda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi muhim o'rin tutmoqda.



Bu boradagi amaliy ishlar Qashqadaryo viloyatida ham izchil davom etmoqda. Viloyatda bugungi kunda 96 ta yirik korxona hamda 26 095 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Mazkur korxonalar viloyat iqtisodiyotining muhim tayanchi bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va eksport salohiyatini oshirishda salmoqli hissa qo'shmoqda.

Tadbirkorlarning faoliyatida uchrayotgan muammolarni o'rganish va ularga amaliy yechim topish maqsadida joriy yil davomida 12 ta yo'nalish bo'yicha 80 ga yaqin ochiq muloqot, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etildi. Mazkur tadbirlarda yuzlab tadbirkorlarning murojaatlari ko'rib chiqildi va 400 dan ortiq masala ijobiy hal etildi. Yechimi qo'shimcha vakolat talab qiladigan murojaatlar esa viloyat hamda respublika darajasidagi mutasaddi tashkilotlar ishtirokida ko'rib chiqildi.

Amaliy natijalar ayniqsa qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, eksport, sanoat, farmatsevtika, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlik faoliyatidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish, yangi loyihalarni

qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlar hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, bugungi kunda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash faqat moliyaviy yordam bilan cheklanib qolmaydi. Eng muhim vazifa — ularning faoliyatini erkin yuritishi uchun qulay biznes muhitini yaratish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va davlat organlari bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishdan iborat. Aynan shu omillar yangi investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini oshirish va hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryoda amalga oshirilayotgan ishlar tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichiga o'tilayotganini ko'rsatmoqda. Tadbirkorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, muammolarni tezkor hal etish va biznes muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli yondashuv kelgusida viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.



MILLIY MADANIYAT TARAQQIYOTINI

USTUVOR BILGAN RAHBAR

Har qanday xalqning ma'naviy qiyofasi uning madaniyati bilan belgilanadi. Milliy qadriyatlarni asrash, san'atni rivojlantirish va boy madaniy merosni kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu bois madaniyat sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

2020-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri lavozimida faoliyat yuritayotgan Ozodbek Nazarbekov rahbarligida madaniyat sohasini rivojlantirish, milliy san'atni qo'llab-quvvatlash, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish hamda xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. San'atkor sifatidagi ko'p yillik ijodiy tajribasi boshqaruv faoliyati bilan uyg'unlashib, milliy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslarning amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda maqom, baxshichilik, milliy raqs va xalq amaliy san'atini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro forumlar, festivallar va ilmiy anjumanlar muntazam tashkil etilmoqda. Mazkur tadbirlar milliy madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish bilan birga, O'zbekistonning xalqaro madaniy nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Xususan, Xalqaro maqom san'ati anjumani va boshqa nufuzli madaniy tadbirlar dunyoning o'nlab mamlakatlaridan olimlar, san'at arboblari hamda ijodkorlarni bir maydonga jamlab, madaniy muloqotni kengaytirishga hissa qo'shmoqda.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham vazirlik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keyingi yillarda UNESCO, TURKSOY hamda Organization of Turkic States bilan hamkorlik doirasidagi loyihalar yangi bosqichga ko'tarildi. Andijon shahrining Turkiy dunyo madaniyat poytaxti deb e'tirof etilishi, xalqaro madaniy loyihalar sonining ortishi va ijodiy almashinuvlarning kengayishi ushbu hamkorlikning amaliy natijalaridan biri bo'ldi.



Madaniyat vazirligi faoliyatida sohani boshqarishning ochiqligi va muloqot tamoyiliga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududlarga amalga oshirilayotgan tashriflar, madaniyat muassasalari faoliyatini joylarda o'rganish, ijodkorlar bilan uchrashuvlar va ochiq muloqotlar mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bosqichma-bosqich bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bu esa sohani boshqarishda amaliy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Madaniyat sohasidagi natijalarni faqat statistik ko'rsatkichlar orqali baholab bo'lmaydi. Uning haqiqiy samarasi jamiyatning ma'naviy hayotida, yoshlarning san'at va madaniyatga qiziqishining ortishida, milliy qadriyatlarga hurmatning mustahkamlanishida hamda O'zbekiston madaniyatining xalqaro maydondagi nufuzining yuksalishida namoyon bo'ladi.

Milliy madaniyatni rivojlantirish, tarixiy merosni asrab-avaylash va uni dunyoga keng targ'ib etish uzoq muddatli taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Shu ma'noda, madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlar O'zbekiston madaniyatining barqaror rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

OLIMPIYA SHAHARCHASI

O‘ZBEK SPORTINING YANGI TAYANCHI

*Zamonaviy sport infratuzilmasini rivojlantirish bugungi kunda xalqaro maydonda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Toshkent shahrida bunyod etilgan **Olimpiya shaharchasi** ana shu maqsad yo‘lida amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri sifatida e’tibor qozonmoqda.*

Zamonaviy sport infratuzilmasini rivojlantirish bugungi kunda xalqaro maydonda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Toshkent shahrida bunyod etilgan Olimpiya shaharchasi ana shu maqsad yo‘lida amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri sifatida e’tibor qozonmoqda.

100 gektardan ortiq hududda barpo etilgan Olimpiya shaharchasi nafaqat yirik sport musobaqalarini o‘tkazish, balki professional sportchilarni tayyorlash, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini tashkil etish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Majmua tarkibida **yengil atletika stadioni, suzish majmuasi, velodrom, yakkakurashlar saroyi** hamda ko‘p tarmoqli **sport arenalari** barpo etilgan bo‘lib, ular xalqaro standartlar asosida qurilgan.


Sport infratuzilmasiga kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat bugungi avlod, balki kelajak sportchilari uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy mashg‘ulot bazalari sportchilarning tayyorgarlik sifatini oshirish, murabbiylar faoliyatini takomillashtirish hamda xalqaro musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish imkonini beradi. Shu jihatdan Olimpiya shaharchasi O‘zbekiston sporti rivojidagi muhim strategik obyektlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Majmuaning foydalanishga topshirilishi mamlakat sport infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu yerda nafaqat milliy terma jamoalar, balki sport maktablari tarbiyalanuvchilari va istiqbolli yosh sportchilar uchun ham zamonaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyati yaratildi. Kelgusida xalqaro musobaqalar, o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari va sport forumlarini qabul qilish salohiyatining yanada kengayishi kutilmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, zamonaviy sport majmualari nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki sport turizmini rivojlantirish,

xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mamlakatning sport sohasidagi nufuzini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Olimpiya shaharchasi O‘zbekistonning sport infratuzilmasini zamonaviy bosqichga olib chiqishga xizmat qilayotgan yirik loyihalardan biri sifatida baholanmoqda.

Har qanday yirik sport inshootining haqiqiy qiymati uning me’moriy ko‘rinishi bilan emas, balki u yerda yetishib chiqadigan chempionlar bilan belgilanadi. Olimpiya shaharchasi ham kelajakda yangi iste’dodlarni kashf etish, xalqaro musobaqalarni qabul qilish va O‘zbekiston sportining raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladigan muhim maskanlardan biri bo‘lishi kutilmoqda.



“OLIMPIYA STADIONI”
OLIMPIYA SHAHARCHASI

JURNALISTIKA TRENDLARI:

AXBOROT MAYDONIDA BIZNI NIMA KUTMOQDA?

Insoniyat tarixida hozirgacha axborot bunchalik tez harakatlangan davr bo'lmagan. Yangilik soniyalar ichida tarqalib, dunyoni kezmoqda. Sun'iy intellekt matn yozmoqda, algoritmlar auditoriya kayfiyatini boshqarmoqda, ijtimoiy tarmoqlar esa klassik OAV bilan raqobatlashayotgan yangi media maydoniga aylandi. Bugun voqea haqidagi ilk ma'lumotni jurnalist emas, ko'pincha tasodifiy guvoh, Telegram-kanal, blogger yoki algoritm tarqatyapti.

Men ham bu hodisadan xoli emasman. Ba'zida kech tunda, ish kunini yakunlab, telefonni qo'yish o'rniga — lentani aylantiraman. Yana bir xabar, yana bir voqea, yana bir sharh... Psixologlar bu holatni «**yangilik kutish sindromi**» deb atamoqda — odam salbiy axborotni o'qishdan to'xtay olmaydi, go'yo to'xtasa dunyodan orqada qolgandek tuyuladi. Bu faqat mening muammom emas — bu bugungi auditoriyaning ommaviy holatidir. Algoritmlar aynan shu zaiflikdan oziqlanadi.

O'zbekiston faol ravishda jahon axborot jarayonlariga qo'shilmoqda. Raqamli medialar soni oshdi, mustaqil internet resurslar va blogosfera rivojlandi, axborot iste'mol tuzilmasi tubdan o'zgardi. Mamlakatimiz **aholisining 94,2 foizi internetdan foydalanadi**. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari soni 14,1 millionga yetdi — bir yilda 41,7 foizga o'sdi. Bu raqamlar nafaqat rivojlanish ko'rsatkichi, balki mas'uliyat hajmini ham ko'rsatadi.

Oksford universitetining Reuters Institute ma'lumotlariga ko'ra (Digital News Report, 2025), dunyo bo'ylab OAVlarga ishonch darajasi atigi 40 foizni tashkil etadi. Bu jurnalistika uchun jiddiy signal: auditoriya axborotni shunchaki qabul qilmaydi — tekshiradi, solishtiradi, shubhalanadi.

Shu sababli jurnalistikaning vazifasi o'zgardi. U endi faqat «nima bo'ldi?» degan savolga javob bermaydi. U «bu nima uchun muhim?», «buning ortida nima bor?», «qaysi jarayonlar bu voqega olib keldi?» degan savollarga ham javob topishi shart. Bunday sharoitda jurnalist oldidagi eng katta vazifa — tezlik va haqiqat orasidagi muvozanatni saqlab qolishdir. Chunki bugun eng qimmat resurs neft ham emas, texnologiya ham emas — eng qimmat resurs ishonchdir.

Bugun jahon media makonida bir nechta muhim yondashuv shakllanmoqda, ular jurnalistikaning kelajagini belgilab bermoqda.

Birinchisi, auditoriya endi shunchaki yangilikni emas, uning ichidagi sabab va oqibatni qidiradi. The New York Times va The Guardian kabi nashrlar bu yo'nalishda peshqadamlik qilmoqda — har bir maqola nafaqat voqeani yoritadi, balki uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstini ochib beradi. Materialning qiymati uni birinchi bo'lib chiqarganida emas, balki uni to'g'ri tushuntirib, ochib, tahlil qilib berganida.

Ikkinchisi, solutions journalism, ya'ni yechimga yo'naltirilgan jurnalistika ham zamon talabi. AQSHdagi Solutions Journalism Network bu yondashuvni «ijtimoiy muammolarga javoblar haqidagi puxta, dalilga asoslangan, tanqidiy va foydali jurnalistika» sifatida ta'riflaydi.

Uchinchidan, bugun sun'iy intellekt (SI) jurnalistikada tobora faol o'rin egallamoqda. Associated Press agentligi 2014-yildan beri SI yordamida moliyaviy hisobotlar bo'yicha maqolalar yaratmoqda. The Washington Post gazetasi Heliograf tizimi orqali minglab avtomatik xabarlarni chiqarmoqda.

Lekin savol tug'iladi: SI mas'uliyatni his qila oladimi? Jamiyatdagi og'riqni to'g'ri o'qiy oladimi? Sun'iy intellekt xabar yozishi mumkin. Lekin intonatsiya tanlash, jamoat manfaatini hisobga olish, etik chegaralarni hurmat qilish — bu inson jurnalistning vazifasidir.

Men, raqamli davr jurnalistikani yo'q qilmaydi, u uning qadri ni qayta belgilaydi, degim keladi. Jurnalistning kuchi endi tez yozishda emas — fikrlashda, talqinda, mas'uliyatda, ishonch qurish qobiliyatida.





NAVOIY O'ZBEK TILI ASOSCHISI BO'LSA,

NEGA BUGUN UNI TUSHUNISH QIYIN?

Alisher Navoiy nomi tilga olinganda, u ko'pincha "o'zbek adabiy tilining asoschisi" yoki "o'zbek tili otasi" sifatida e'tirof etiladi. Biroq ko'pchilikni bir savol o'ylantiradi: agar Navoiy bugungi o'zbek tilining asoschilaridan biri bo'lsa, nega uning asarlarini lug'at va izohlarsiz mutolaa qilish aksariyat o'quvchilar uchun murakkab?

Bu savolga javob topish uchun, avvalo, XV asrning til muhitiga nazar tashlash zarur.

O'sha davrda Markaziy Osiyoda ilm-fan va adabiyotning asosiy tili fors tili edi. Saroy adabiyoti, ilmiy asarlar va ko'plab badiiy ijod namunalari aynan shu tilda yaratilgan. Turkiy til esa ko'pincha kundalik muloqot vositasi sifatida baholanar, uning yuksak adabiyot yaratish imkoniyatlari yetarli darajada e'tirof etilmas edi.

Ana shunday tarixiy sharoitda Alisher Navoiy turkiy tilning boyligi va badiiy imkoniyatlarini namoyon etishga kirishdi. U nafaqat buyuk shoir, balki tilshunos sifatida ham tarixda iz qoldirdi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy va fors tillarini qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning ifoda imkoniyatlari kengligini ilmiy asoslashga harakat qildi. "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Xazoyin ul-ma'oniyy" singari yirik asarlari esa turkiy tilda ham yuksak badiiy adabiyot yaratish mumkinligini amalda isbotladi.

Aynan shu xizmatlari tufayli Navoiy o'zbek adabiy tilining shakllanishiga eng katta hissa qo'shgan tarixiy shaxslardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shunga qaramay, bugungi o'quvchi Navoiy asarlarini mutolaa qilayotganda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Buning sababi shoirning "boshqa tilda" yozganida emas, balki tilning tabiiy taraqqiyotidir.

Har qanday til vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Yangi so'zlar kirib keladi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqadi, grammatik me'yorlar va talaffuz yangilanadi. Navoiy yashagan davr bilan bugungi kun o'rtasida besh asrdan ortiq vaqt bor. Bu davr ichida o'zbek tili ham tabiiy evolyutsiyani boshdan kechirdi. Natijada Navoiy asarlaridagi ko'plab arabcha va forscha qatlam, eski grammatik shakllar hamda mumtoz badiiy uslub bugungi kitobxon uchun murakkab tuyuladi. Shu sababli Navoiy merosini to'liq anglashda izohli lug'atlar va ilmiy sharhlar muhim o'rin tutadi.

Bunday holat faqat o'zbek tiliga xos emas.

Masalan, rus adabiyoti tarixida ham shunga yaqin jarayon kuzatilgan. XIX asr boshlarigacha Rossiya zodagonlari orasida fransuz tili keng qo'llanilgan, adabiyotda esa cherkovslavyan tilining murakkab uslubi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Aleksandr Pushkin xalq tili bilan adabiy til o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga xizmat qilib, zamonaviy rus adabiy tilining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Shu bois u ham rus adabiy tili taraqqiyotining asosiy namoyandalardan biri sifatida e'tirof etiladi.



N

Navoiy va Pushkin faoliyati o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud. Har ikki ijodkor o'z xalqining tilini yuksak adabiyot darajasiga olib chiqishga xizmat qilgan. Farqi shundaki, Navoiy turkiy tilning ilmiy va badiiy salohiyatini namoyon etgan bo'lsa, Pushkin rus adabiy tilini xalq nutqiga yaqinlashtirish orqali uning zamonaviy qiyofasini shakllantirishga hissa qo'shgan.

Ingliz tili tarixida esa boshqa tajribani kuzatish mumkin. XVII–XVIII asrlarda ingliz imlosini soddalashtirish bo'yicha turli takliflar ilgari surilgan. Biroq tarixiy yozuv an'anasini saqlab qolish tarafdorlari klassik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikni yo'qotishdan xavotir bildirgan. Natijada ingliz tilining yozuv tizimi katta darajada saqlanib qolgan va bugungi kunda ham tarixiy imlo bilan zamonaviy talaffuz o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tilning rivojlanishi tabiiy jarayon bo'lib, u har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Asrlar davomida o'zgarib borgan til klassik adabiyotlarni mutolaa qilishni murakkablashtirishi mumkin, biroq aynan shu murakkablik millatning boy madaniy merosi va tarixiy uzluksizligidan dalolat beradi.

Demak, Alisher Navoiy asarlarini lug'at va ilmiy izohlar yordamida o'qish ularning bizga begonaligini emas, aksincha, o'zbek tilining besh asrlik taraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Navoiy bizdan uzoqlashmagan. Oradan o'tgan besh yuz yil davomida til o'zgardi. Biz esa buyuk mutafakkir merosini anglash uchun tarix va til o'rtasidagi ana shu masofani ilm vositasida bosib o'tmoqdamiz.



KIBERXAVFSIZLIK RAQAMLI DAVR TALABI

R

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Davlat xizmatlari, bank tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlikning raqamlashtirilishi fuqarolar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq raqamli imkoniyatlar kengaygani sari axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, dunyo bo'ylab kiberjinoyatlar soni yil sayin ortib bormoqda. Phishing, zararli dasturlar, to'lov tizimlariga hujumlar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash hamda sun'iy intellekt yordamida yaratilayotgan soxta audio va videolar zamonaviy tahdidlarning eng keng tarqalgan ko'rinishlari hisoblanadi. O'zbekistonning UzCERT markazi tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlarda ham phishing, mobil qurilmalarga hujumlar, ransomware, IoT qurilmalariga tahdidlar va ichki xavflar asosiy kiberxatarlar sifatida qayd etilgan.

Mamlakatimizda axborot tizimlarini himoya qilish, davlat organlari va muhim infratuzilmalar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, kiberjinoyatlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar raqamli transformatsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlash, fuqarolar va biznes subyektlarining axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan kiberxavfsizlikka e'tibor tobora kuchaymoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakat axborot tizimlariga 12 milliondan ortiq kiberhujum qayd etilgan. Firiibgarlik jinoyatlarining sezilarli qismi esa bank kartalari va elektron to'lov vositalari bilan bog'liq holatlarga to'g'ri kelmoqda. Bu raqamlar kiberxavfsizlik endilikda faqat texnik masala emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikning ham muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash faqat davlat idoralari yoki yirik kompaniyalarning vazifasi emas. Har bir foydalanuvchi ham shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha mas'uliyatni his etishi zarur. Kuchli va noyob parollardan foydalanish, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqish, noma'lum havolalarni ochmaslik hamda dasturlarni faqat ishonchli manbalardan yuklab olish eng oddiy, biroq samarali himoya choralaridan hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi kiberxavfsizlik sohasida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Deepfake texnologiyalari, avtomatlashtirilgan fishing xabarlarini va tobora murakkablashayotgan zararli dasturlar foydalanuvchilardan yanada yuqori hushyorlikni talab qilmoqda. Shu bois mutaxassislar texnik himoya vositalari bilan bir qatorda aholining raqamli va media savodxonligini oshirishni ham eng muhim vazifalardan biri sifatida baholamoqda.

Mamlakatimizda axborot tizimlarini himoya qilish, davlat organlari va muhim infratuzilmalar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, kiberjinoyatlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar raqamli transformatsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlash, fuqarolar va biznes subyektlarining axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli taraqqiyot sharoitida kiberxavfsizlik endi faqat axborot texnologiyalari sohasi vakillarining masalasi emas. U davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizligi bilan bevosita bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, ulardan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirish ham jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Zero, raqamli dunyoda eng ishonchli himoya vositasi zamonaviy texnologiyalargina emas, balki bilimli va ogoh foydalanuvchidir.



ERKIN IQTISODIY ZONALAR QANDAY SAMARA BERMOQDA?

Global iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish va eksport salohiyatini oshirish davlatlar oldidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Shu maqsadda dunyoning ko'plab mamlakatlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratilmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar investorlar uchun tayyor infratuzilma, soliq va bojxona imtiyozlari hamda soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni taklif etishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hududlarda zamonaviy sanoat korxonalari tashkil etilib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari belgilangan shartlar asosida qator preferensiyalardan foydalanish huquqiga ega.

So'nggi yillarda ushbu zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, 2025-yilda qabul qilingan Prezident farmoni bilan maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining samaradorligini oshirish, investitsiyalar hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Hujjatga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalarga 2,3 milliard AQSH dollari investitsiya jalb etish, eksport hajmini 1 milliard dollarga, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard dollarga yetkazish hamda 12 mingta yangi doimiy ish o'rne yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

Bugungi kunda "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "Qo'qon", "G'ijduvon" va boshqa erkin iqtisodiy zonalar hududlarning sanoat salohiyatini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Mazkur zonalarida elektrotexnika, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati yo'nalishlarida yuzlab investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan birga eksport geografiyasini kengaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalarining yana bir muhim natijasi hududlar iqtisodiyotining faollashuvida namoyon bo'lmoqda. Yangi korxonalar ishga tushirilishi mahalliy aholining bandligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishga zamin hozirlamoqda. Natijada investitsiya loyihalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samara ham bermoqda.


Mutaxassislarining ta'kidlashicha, erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini faqat jalb qilingan investitsiyalar hajmi bilan baholash yetarli emas. Asosiy mezon — eksportning o'sishi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarilishi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishdir. Aynan shu ko'rsatkichlar erkin iqtisodiy zonalarining iqtisodiyotga qo'shayotgan real hissasini belgilaydi.

Bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar O'zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Kelgusida ushbu zonalarida innovatsion loyihalarni kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va investorlar uchun yanada qulay biznes muhitini yaratish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Zero, erkin iqtisodiy zonalarining haqiqiy qiymati nafaqat jalb qilingan investitsiyalar hajmida, balki ular yaratayotgan yangi ishlab chiqarishlar, ish o'rinlari va eksport imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.



SUN'IY INTELLEKT TA'LIMNI QANDAY O'ZGARTIRMOQDA?

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Avvallari raqamli vositalar asosan axborot izlash yoki masofaviy ta'limni tashkil etishda qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt o'quv jarayonini individuallashtirish, bilimlarni tahlil qilish va o'qituvchilarning kundalik ishini yengillashtirishda muhim vositaga aylanmoqda.



Xalqaro tashkilotlar ta'kidlashicha, sun'iy intellekt o'quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlarini tahlil qilish, moslashtirilgan o'quv dasturlarini shakllantirish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, akademik halollik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli tenglik masalalari ham ushbu texnologiyalarni joriy etishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab maktablari va oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi platformalar qo'llanilmoqda. Ular o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, individual tavsiyalar beradi, murakkab mavzularni sodda tushuntiradi hamda o'qituvchilarga darslarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlashda yordam bermoqda. Natijada ta'lim jarayoni yanada moslashuvchan va samarali tus olmoqda.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron ta'lim platformalari, raqamli resurslar va onlayn xizmatlar sonining ortishi bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Mutaxassislarning fikricha, sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish o'qituvchilarga takroriy vazifalarga kamroq vaqt sarflab, ijodiy va metodik faoliyatga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi.

Biroq sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Ta'lim faqat bilim berish jarayoni emas. U tarbiya, muloqot, tanqidiy fikrlash, qadriyatlarini shakllantirish va shaxs kamolotini ta'minlaydigan murakkab ijtimoiy jarayondir. Shu sababli mutaxassislar sun'iy intellektni o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, balki uning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi vosita sifatida baholamoqda.

Yana bir dolzarb masala — akademik halollikdir. Sun'iy intellekt yordamida matn yaratish, masalalarni yechish yoki dasturiy kod yozish imkoniyatlari kengaygani sari ta'lim muassasalari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, manbalar bilan ishlash va mas'uliyat hissini shakllantirishga yanada katta e'tibor qaratmoqda. Endilikda eng muhim savol "sun'iy intellektdan foydalanish mumkinmi?" emas, balki "undan qanday mas'uliyat bilan foydalanish kerak?" degan masalaga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. U bilim olish jarayonini tezlashtirishi, o'qituvchilar mehnatini yengillashtirishi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq ushbu texnologiyaning haqiqiy qiymati insonni almashtirishda emas, balki uning salohiyatini yanada rivojlantirishdadir. Kelajak ta'limi sun'iy intellekt va o'qituvchi o'rtasidagi raqobatga emas, balki ularning samarali hamkorligiga tayanadi.

TRENDGA AYLANGAN KITOBLAR:

IJTIMOY TARMOQLAR KITOBXONLIKNI O'ZGARTIRMOQDAMI?

Bir necha yil avval O'zbekiston ijtimoiy tarmoqlari-da trendlar asosan musiqa, moda yoki ko'ngilochar kontent atrofida shakllanar edi. So'nggi yillarda esa yana bir qiziqarli hodisa kuzatilmoqda — kitoblar ham trendga aylana boshladi. Instagram va TikTok platformalarida kitob tavsiyalari, qisqa sharhlar hamda mutolaa taassurotlari yuz minglab, ayrim hollarda millionlab tomoshalarni yig'moqda. Bu esa muhim bir savolni o'rta tashlaydi: ijtimoiy tarmoqlar haqiqatan ham kitobxonlikni rivojlantiryaptimi?

O'zbek segmentida kitob mavzusida faoliyat yuritayotgan blogerlar soni sezilarli darajada ortdi. Ular badiiy va ilmiy adabiyotlarni sodda tilda sharhlab, o'quvchilarga yangi asarlarni tavsiya qilmoqda. Ayniqsa, "Binafsha shu'las", "Men" va "Yashamoq" kitoblari atrofida yuzaga kelgan qiziqish ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi. Mazkur asarlar haqidagi qisqa videolarning millionlab tomosha qilinishi, kitob do'konlari va nashriyot sahifalarida ularga bo'lgan talabning ortishi kuzatilmoqda.

Bu jarayonni internetdagi navbatdagi trend sifatida baholash yetarli emas. Chunki yoshlarning katta qismi yangi kitoblarni aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali kashf etmoqda. Avvallari kitob tavsiyalari ko'proq kutubxonalar, gazeta-jurnallar yoki kitob do'konlari orqali tarqalgan bo'lsa, endilikda bir daqiqalik video minglab insonlarni mutolaa qilishga undashi mumkin. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning kitob targ'ibotidagi o'rni sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi.

Biroq bu yerda muhim bir tafovut mavjud. Kitobning ommalashuvi bilan kitobxonlik madaniyatining shakllanishi bir xil jarayon emas. Millionlab ko'rishlar kitobga qiziqish ortganini anglatadi, ammo ularning barchasi kitob o'qishga aylanganini isbotlamaydi. Haqiqiy natija videolar soni yoki layklar bilan emas, kitobni mutolaa qilgan va undan xulosa chiqargan o'quvchilar soni bilan o'lchanadi.

Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Kitob tavsiya qiluvchi blogerlar yangi mualliflarni kashf etmoqda, unutila boshlagan asarlarni yana o'quvchi e'tiboriga qaytarmoqda va mutolaa atrofida yangi hamjamiyatni shakllantirmoqda. Kitob do'konlari, nashriyotlar hamda mualliflar esa raqamli platformalarni kitob targ'ibotining samarali vositasiga aylantirmoqda.

Bu jarayon faqat O'zbekistonga xos emas. Dunyo miqyosida BookTok va Bookstagram hamjamiyatlar nashriyot bozori hamda kitob savdosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim kitoblar aynan ijtimoiy tarmoqlardagi ommalashuv tufayli best-sellerga aylangan. O'zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida kuzatilayotgan kitob trendi ham ana shu global jarayonning milliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kitobning trendga aylanishi — quvonarli hodisa. Ammo haqiqiy maqsad kitobni bir necha kunlik internet shov-shuviga emas, inson hayotining ajralmas qismiga aylantirishdir. Chunki kitobning haqiqiy qadri millionlab ko'rishlarda emas, o'qilgan sahifalarda, o'zgargan tafakkurda va shakllangan mutolaa madaniyatida namoyon bo'ladi.

Я
Ш
А
М
О
К



XORIJIY KORXONALAR

**ASOSAN QAYSI
HUDUDLARDA
FAOLIYAT
YURITMOQDA?**

X

Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimoti mamlakat iqtisodiyotidagi faollikni baholashning muhim mezonlaridan biri sanaladi.



*Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-iyun holatiga O'zbekistonda chet el investitsiyalari ishtirokida **19 921 ta korxona** faoliyat yuritmoqda. Ushbu ko'rsatkich mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xorijiy investorlar faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi.*

Ikkinchi o'rinda Toshkent viloyati joylashgan bo'lib, hududda 2 726 ta xorijiy korxona faoliyat yuritmoqda. Poytaxtga yaqinligi, yirik sanoat zonalari, rivojlangan transport-logistika infratuzilmasi hamda ishlab chiqarish maydonlarining mavjudligi viloyatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda.

Keyingi o'rinlarni Samarqand (728 ta), Farg'ona (647 ta) va Surxondaryo (567 ta) viloyatlari egallagan. Mazkur hududlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, logistika va xizmat ko'rsatish sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar bosqichma-bosqich kengayib bormoqda.

Shuningdek, Andijon (480 ta), Buxoro (425 ta), Navoiy (325 ta), Sirdaryo (324 ta), Namangan (313 ta), Jizzax (275 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (245 ta), Xorazm (208 ta) va Qashqadaryo (178 ta) hududlarida ham xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu esa investitsiyaviy faollik mamlakatning deyarli barcha hududlarini qamrab olayotganini ko'rsatadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, xorijiy korxonalar sonining ortishi faqat investitsiyalar hajmi oshganini anglatmaydi. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalar transferi, yangi boshqaruv tajribalarining kirib kelishi, mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli hududlarda investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va investitsiyaviy jozibadorlikdagi farqlarni ham aks ettiradi. Shu bilan birga, keyingi yillarda viloyatlarda amalga oshirilayotgan yangi sanoat loyihalari va infratuzilma dasturlari investitsiyalarning hududlar bo'ylab tobora kengroq taqsimlanishiga xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiy faollikni faqat poytaxtda emas, balki mamlakatning barcha hududlarida barqaror rivojlantirishga qaratilgan siyosat izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

H

Hududlar kesimida mutlaq yetakchilik Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Poytaxtda 12 480 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona faoliyat yuritmoqda. Bu, avvalo, Toshkentning mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va logistika markazi ekani, rivojlangan infratuzilma, malakali kadrlar salohiyati va xizmatlar bozorining shakllangani bilan izohlanadi. Investorlar uchun zarur biznes ekotizimining aynan poytaxtda shakllangani ham ushbu ustunlikni ta'minlamoqda.

LOGISTIKA MARKAZLARI:

O'ZBEKISTONNING TRANZIT SALOHIYATI ORTMOQDA

Qadimda Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lagan bo'lsa, bugungi kunda zamonaviy transport yo'laklari va logistika markazlari mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylandi. Geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston ham transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqaning yirik tranzit markaziga aylanishni maqsad qilgan.

So'nggi yillarda mamlakatda logistika xizmatlari bozori rivojlantirish, transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish hamda yuk tashish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2030-yilgacha mo'ljallangan transport va logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasida tranzit salohiyatini oshirish, zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va xalqaro transport yo'laklarini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda **Navoiy, Termiz, Angren** va boshqa hududlarda shakllanayotgan logistika markazlari na faqat ichki yuk tashish hajmini oshirish, balki xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Ushbu markazlarda yuklarni saqlash, saralash, bojxona rasmiylashtiruv va multimodal tashuvlarni tashkil etish bo'yicha zamonaviy xizmatlar yo'lga qo'yilmoqda. Natijada yuklarni qayta ishlash tezligi ortib, transport xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, logistika markazlari iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga tez va xavfsiz yetkazish, eksport xarajatlarini kamaytirish hamda ta'minot zanjirining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, eksportyor korxonalar uchun samarali logistika tizimi xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.



O'zbekistonning tranzit imkoniyatlari yangi xalqaro transport yo'laklari bilan ham mustahkamlanmoqda. **Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li, Transafg'on transport yo'lagi va Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishi** mamlakatning Osiyo hamda Yevropa bozorlarini bog'lovchi strategik hudud sifatidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu loyihalar yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va tashqi savdo hajmini kengaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Logistika infratuzilmasining rivojlanishi faqat transport tizimiga emas, balki hududlar iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi logistika markazlari atrofida ombor xo'jaliklari, xizmat ko'rsatish korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlari shakllanib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, zamonaviy logistika tizimini rivojlantirish kelgusida O'zbekistonning mintaqaviy tranzit markazi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin. Buning uchun xalqaro transport yo'laklarini kengaytirish, logistika markazlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamli logistika xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv sharoitida logistika infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning strategik omillaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonning qulay geografik joylashuvi va transport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Logistika markazlarining rivojlanishi esa mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

ELEKTRON TIJORAT:



So'nggi yillarda O'zbekistonda xarid qilish odatlari sezilarli darajada o'zgar-di. Agar avvallari mahsulotni tanlash uchun bozor yoki savdo markaziga borish odatiy hol bo'lgan bo'lsa, bu-gungi kunda bir necha tugmani bosish orqali kerakli mahsulotni buyurtma qilish millionlab insonlar hayotining odatiy qismiga aylandi. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi nafaqat savdo shaklini, balki iste'mol-chilarning xarid qilish madaniyatini ham o'zgartirmoqda.

XARID QILISH MADANIYATI QANDAY O'ZGARMOQDA?

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda elektron tijorat hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha rasmiy statistik kuzatuvlarning yuritilishi ham raqamli savdoning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

